

“TASDIQLAYMAN”
“Navoiy kon-metallurgiya kombinati” AJ
huzuridagi Jamoatchilik kengashi raisi



I.Q. Rahmatov

2025-yil “ 3 ” 01

“Navoiy kon-metallurgiya kombinati” AJ huzuridagi
JAMOATCHILIK KENGASHI YIG‘ILISHI
BAYONI № 1/2025

Navoiy shahri

2025-yil “ ___ ” ___

Raislik qiluvchi: X.R.Raupov -Jamoatchilik kengashi raisi o‘rinbosari

Ishtirok etdi: Kengash a‘zolari (ro‘yxat bo‘yicha)

KUN TARTIBI:

Jamoatchilik kengashi tomonidan 2024-yilda amalga oshirilgan ishlar hisoboti va
2025-yilgi ish rejasini tasdiqlash to‘g‘risida

(Raupov, Djuraev, Sadriiddinov, Soyibov, Radjabov, Isoqov, ... Raupov)

“Navoiy KMK” AJ huzuridagi Jamoatchilik kengashi raisi o‘rinbosari X.Raupov yig‘ilishni ochib, Kengash tomonidan 2024-yilda amalga oshirilgan ishlar to‘g‘risida hisobot berdi.

Shundan so‘ng, kengash kotibi A.Djuraev tomonidan 2025-yilga mo‘ljallab ishlab chiqilgan kengash ish rejasini loyihasi o‘qib eshittirildi.

Muzokarlarda S.Radjabov, S.Nazarova, F.Soyibov va boshqalar tomonidan turli taklif va fikr-mulohazalar bildirildi.

Kun tartibida bildirilgan fikr-mulohaza va takliflardan kelib chiqib, yig‘ilish

QAROR QILADI:

1. Jamoatchilik kengashi raisi o‘rinbosari X.R.Raupovning 2024-yilda amalga oshirilgan ishlar bo‘yicha hisoboti ma‘lumot uchun qabul qilinsin.

2. Jamoatchilik kengashining 2025-yilga mo‘ljallangan ish rejasini Ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Quyidagilar:

- NKMK faoliyatiga doir qabul qilinayotgan muhim me‘yoriy-huquqiy hujjatlar, dasturlarda faol ishtirok etish;

- jismoniy va yuridik shaxslar, shu jumladan, kombinat ishchi-xodimlari huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish;

- ijtimoiy va jamoatchilik manfaatlariga daxldor vazifalarni bajarish, bitimlar, shartnomalar, loyihalar va dasturlarni ro'yobga chiqarish bo'yicha jamoatchilik nazoratini o'rnatish;

- nodavlat-notijorat tashkilotlar, ommaviy axborot vositalari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari bilan hamkorlikni yo'lga qo'yish;

- jamoatchilik fikrini har tomonlama tahlil qilib borish, ijtimoiy so'rovnomalar o'tkazish;

- korrupsiyaga qarshi kurashish va bu borada mas'ul bo'linmalar bilan natijadorlikka erishish choralarini ko'rish;

- ochiqlik siyosatini doimiy monitoring qilib borish;

- ishchi-xodimlar, ular oila a'zolari, pensionerlarni ijtimoiy himoya qilish, Jamoa shartnomasi talablari bajarilishini ta'minlash va boshqa muhim vazifalar ijrosini nazoratga olish va sharoitlarni chnada yaxshilash yuzasidan rahbariyatga takliflar kiritish;

- o'ziga yuklatilgan vazifalar bo'yicha keng ko'lamli targ'ibot-tashviqot ishlarini olib borish Jamoatchilik kengashi va uning har bir a'zosining asosiy vazifasi ekanligi eslatib o'tilsin.

4. Ushbu yig'ilish bayoni ijrosini nazorat qilish Jamoatchilik kengashi raisi o'rinbosari X.R. Raupov zimmasiga yuklansin.

Bayonlashtirdi:



A.Jo'rayev

